

## SHUM BOLA ASARINING TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI

**Berdiyeva Sitora Utkerovna**

*Buxoro Davlat Universiteti, Ingliz adabiyotshunosligi yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Badiiy asarlarni tarjima qilishda xalqlar madaniyati o'rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish muhim hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so'z boyligi talab qilinadi. Bundan tashqari tarjima qilishda asl ma'noni saqlagan holda asarni qisqartmalarsiz tarjima qilish ham tarjima jarayonining muammolardan biridir. Ushbu maqolada tarjima jarayonidagi shu kabi xususiyatlarga e'tibor qaratishni lozim topdik.*

**Kalit so'zlar:** *badiiy tarjima, tarjima asarlar, yozuvchi, transliteratsiya, transformatsiya, lingvokulturologik xususiyatlar.*

Xalqimizning ardoqli yozuvchi va shoiri G'afur G'ulom qalamiga mansub bo'lmish "Shum bola" qissasini ayrimlar soddagina, faqat kulguli sarguzashtlardan iborat asar hisoblaydi, lekin aslida asar shunchaki, yengil-yelpi hangomalarga yo'g'rilgan asar emas. Uning zamirida yotgan achchiq haqiqat har bir o'quvchini jiddiy o'yg'a toldiradi va tegishli xulosalar chiqarishga undaydi. Asar yozuvchi yashagan davrni va muhitni tasvirlaydi. Asarni o'qiyotganda kitobxon Toshkentning eski ko'chalarida, bozorlarida va mahallalarida bosh qahramon bilan birgalikda sayohat qiladi. "Shum bola" asarining ingliz tilidagi tarjimasida ham xuddi shunday milliylik aks ettiruvchi misralarni uchratishimiz mumkin.

Asarni ingliz tiliga 2017 yilda Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Ilhom To'xtasinov tarjima qilgan. Tarjimonning ko'plab tarjimalari mavjud.

"Shum bola" asarining ingliz tilidagi tarjimasida lingvo-kulturologik jihatlarda ko'plab farqlar uchraydi. Chunki o'zbek milliy madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlarni aks ettiruvchi so'zlarning ingliz tilidagi muqobil so'zni topish qiyin. Shunday hollarda tarjimon yaqin ma'no aks etuvchi so'zdan foydalangan yoki umuman tushurib qoldirgan. Masalan, "*Uzun rasta, juhud rasta, attorlik va boshqa rastlarning boyvachchalari savdodan bo'sh vaqtlarida bu choyxonaga yig'ilib mehmonalardek o'rtada katta barkashlardan qand-qurs, pista-bodom, murabbonisholda, obinon, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqchalashib o'tirishardi.*" Asarning xuddi shu qismining ingliz tilidagi tarjimasida "*The rich of long row, haberdashery rows and other rows gather there at the table served with lumps of sugar, nuts, jam, hot-bread and oil-bread, and they are having endless chattering.*" deb berilgan. Bu yerda ayrim so'zlar tushurib qoldirilgan: "*shamaloq bezatilgan dasturxon*", ya'ni yozuvchi dasturxon ustida hamma narsa muhayyo degan ma'noda yozgan, tarjimada esa aynan shu qism berilmagan. Yoki, "*Uzun rasta, juhud rasta*" ni "*The rich of long row*" deb yozilgan. Chunki ingliz

tilidagi tarjimada aynan ushbu ma'noni beruvchi ibora yoqligi tufayli, shunday tarjima qilingan. Yana bir boshqa misolda *"Ba'zi boyvachchalarning dasturxonida qornida qaldirg'och surati solingan, ustiga poxoldan to'r to'qilgan konyaklar ham ko'rinar edi."* Tarjimon bu yerda ichimlikka keltirilgan uzun tasvirni umuman tushurib qoldirgan: *"There are also bottles of cognacs on the tables of some rich men."*

Tarjimada transformatsiyaning bir turi umumlashtirish nomi bilan ataladi. Tarjimada aksariyat hollarda asliyatda berilgan ma'noda tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblangani bois ba'zi aniqliklar umumlashtiriladi. Yuqoridagi misolda aynan shu holat kuzatiladi.

Tarjimon milliy koloritni saqlash maqsadida ayrim so'zlarni tarjima qilmasdan ularni asl holida qoldirib, ularga sahifa ostida ta'rif keltirgan. Bunday usul qo'llanilishiga yana bir sabab, bu so'zlarning aynan tarjimasi mavjud emas, chunki ular faqat milliy xususiyatga ega va ingliz jamiyatida bunday buyumlar qo'llanilmaydi, yoki joy nomlari va ismlar uchramaydi. Masalan, *"He wore a yaktak on his shoulder"*. Aynan shu sahifaning ostida "yaktak" so'ziga "oriental robe", ya'ni "Sharq xalati, kiyimi" deb ta'riflangan. Yana bir misol: "Mullah had already tied his salla as a belt", bu yerda "salla" ya'ni erkaklar bosh kiyimiga quyidagicha ta'rif berilgan: "A kind of head dress tied around the head, usually made of silk". Yoki aynan "salla" so'zining boshqa joyda *"He had put on his salla and his eyebrow and face were red and green"* - "turban" kabi ta'rif keltirish orqali yozilgan joyi ham mavjud. Tarjimonning bunday ta'rif keltirishi orqali ingliz kitobxonlarining ko'z oldida predmetning aniq tasviri keladi. Chunki bu so'zlarning yuqorida ta'kidlanganidek aynan tarjimasi yoq va boshqa shu ma'noga yaqin so'zni ham topish qiyin. Tarjimonning bunday mahorati orqali ham o'zbek milliy so'zlari ingliz kitobxonlari tomonidan o'rganiladi va ular to'g'ri tushunchaga ega bo'lishadi.

Ismlar ham aynan o'zi keltirilgan, "To'ychi xofiz"- "Tuychi singer", "Hamroqul qori"- "Hamrokul", "Hoji Abdulaziz"- "Hoji Abdulaziz" kabi, joy nomlari ham xuddi shunday "Tashkent", "Kukterak", "Kingiroq Tepa" deb berilgan. Bunday so'zlarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud. Muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilishning eng oson yo'li bu - so'zlarni transliteratsiya qilish, ya'ni so'z talaffuzini terish, saqlash hisoblanadi. Bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, geografik nomlarni, lavozimlarni, gazeta va jurnallar, ya'ni davriy nashr nomlarini, korxonalar, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, kema hamda mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng qo'llanadi. Tarjima nazariyasida mavjud adabiyotlarning ko'rsatishicha, transliteratsiyadan foydalanish afzalliklarga ega, chunki transliteratsiya asliyatda ishlatilgan so'zning talaffuz shaklini beradi. Transliteratsiya so'zning grafik jihatini hisobga oladi.

Asarning yana bir joyida, Sulton kisavur o'g'rilikdan so'ng Mulla va sheriklari bilan ulfatchilik qilayotganida ushbu satrlarni tarjimon aynan asl holatida yozib, ostida ta'rif keltirgan:

*Bu tog'larning yonboshida otim yurgan  
Quyishqoni sag'risiga botib yurgan  
Sendek-sendek nomardlarni men ko'p ko'rgan  
Oq tomog'im, yo'rg'alang alyor bo'lsin...*

Tarjimon shunday yozgan: "Meaning: I walked on the coast of these mountains; I saw such kind of poor-spirit like you..."

Ayrim hollarda tarjimon she'riy misralarni mahorat bilan tarjima qilgan:

*Xum-xum hazrati xum  
Umarali xoni Madalibek  
Madalibekning zamonida  
Tarala gijbangu  
Tarala gijbang.*

Tarjimasi: *Jug-jug, majesty jug*

*Umarali king Madalibek*

*At the period Madalibek*

*Play well, play, enjoy*

Bu yerdagi misralar tarjimasi asl variantiga juda mos kelgan va she'riy shaklda yozilishi tarjimonning yuksak mahoratidan darak beradi.

Tarjimon uchun ikki tilning, ya'ni xorijiy til va ona tili xususiyatlarini bilish yaxshi amaliy bilim hisoblanadi, biroq bu tarjima qilish uchun yetarli emas. Til xususiyatlarini bilishdan tashqari tarjimon tarjima nazariyasida ishlab chiqilgan bir qator prinsiplarini yaxshi bilish bilan birga yaxshi ishonchli malakaga ham ega bo'lishi lozim.

"Shum bola" etnograflar uchun noyob qo'llanmadir. Chunki unda 20-asr boshlarida Toshkent va uning atroflarida mavjud shahar va qilshoqlar, ulardagi madaniy hayot, ismlar, joy nomlari, bolalar o'yinlari, maishiy turmush tarsi haqida jonli hikoyalar berilgan. Tarjimada ham ushbu ma'lumotlar saqlanib, asarning umumiy ma'nosi yo'qotilmagan, aksincha asardagi milliylik ruhi mahorat bilan yetkazilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. G'ofurov, "Tarjima nazaroyasi" Toshkent 2012
2. G'afur G'ulom, "Shum Bola" Toshkent 1983
3. I. Tukhtasinov, U.Yuldashev "Naughty Boy" Tashkent 2017
4. S. Abdixafizov, "G'ofur G'ulom Ijodining Nazariy Tahlili" Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022
5. [www.britishcouncil.uz](http://www.britishcouncil.uz)